

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-MОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT ACTIVITY WITHIN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Mamatova Sayyara Shavkatovna

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

sayyaramamatova87@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilingan. Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, kompetensiyaviy yondashuv, modul asosida o'qitish, raqamli ta'lim texnologiyalari hamda konstruktiv moslik tamoyillarining o'rni yoritilgan. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, anketa, suhbat, qiyosiy va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, mustaqil faoliyat, kompetensiyaviy yondashuv, empirik tahlil, kollokvium, refleksiya, pedagogik texnologiyalar, texnika oliy ta'limi, ta'lim sifati.

Аннотация. В статье проанализированы теоретические и методические основы организации самостоятельной деятельности студентов в условиях кредитно-модульной системы. Освещены педагогические условия эффективной организации самостоятельного обучения, роль компетентностного подхода, модульного обучения, цифровых образовательных технологий и принципов конструктивного согласования. В исследовании использованы методы анализа научной литературы, педагогического наблюдения, анкетирования, беседы, сравнительного и статистического анализа.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, самостоятельная деятельность, компетентностный подход, эмпирический анализ, коллоквиум, рефлексия, педагогические технологии, техническое высшее образование, качество образования.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations for organizing students' independent activity within the credit-module system. It highlights the pedagogical conditions required for the effective organization of

independent learning, as well as the role of the competency-based approach, modular instruction, digital educational technologies, and the principles of constructive alignment. The study employed methods of scientific literature analysis, pedagogical observation, questionnaires, interviews, comparative analysis, and statistical analysis.

Keywords: *credit-module system, independent learning, independent activity, competency-based approach, empirical analysis, colloquium, reflection, pedagogical technologies, technical higher education, quality of education.*

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish hamda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish dunyo ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro ta'lim makonida keng qo'llanilayotgan kredit-modul tizimi talabaning o'quv jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish va o'quv natijalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash imkonini beradi. Mazkur tizimning asosini talabaning auditoriyadan tashqari mustaqil o'quv faoliyati tashkil etib, uning samaradorligi mustaqil ta'limni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishga bevosita bog'liqdir [1; 3; 5].

O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, ta'lim jarayonini ECTS tamoyillari asosida tashkil etish hamda talabalarning mustaqil ta'lim ulushini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 824-son qarorida kredit-modul tizimini joriy etish, mustaqil ta'limni takomillashtirish va ta'lim natijalarini kompetensiyalar asosida baholash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1; 2]. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning ilmiy va metodik asoslarini chuqur o'rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Mustaqil ta'limni tashkil etish masalalari xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish hamda mustaqil o'quv faoliyatini boshqarish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan [6;8;9]. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limning samaradorligi o'quv maqsadlari, ta'lim metodlari va baholash tizimining o'zaro uyg'unligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq [5;7].

Respublikamiz olimlari tomonidan ham kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, B.Sh.Usmonov va R.A.Xabibullayev kredit-modul tizimining tashkiliy asoslari va o'quv jarayonini rejalashtirish mexanizmlarini yoritgan bo'lsa [3], V.O'rinov ECTS kredit tizimining tamoyillari hamda uni O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga moslashtirish masalalarini tahlil qilgan [4]. F.O.Mirzayeva, D.Ubaydullayeva, Sh.Turayev,

B.X.Boltayeva, A.M.Abdurasulova va Sh.E.Kurbanovlarning ilmiy ishlarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish, mustaqil o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirish, baholash mezonlarini takomillashtirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish masalalari yoritilgan [8–10].

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimining nazariy va metodik asoslari yetarli darajada o'rganilgan bo'lishiga qaramay, texnika oliy ta'lim muassasalarida empirik tahlillar va kollokvium orqali talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning pedagogik mexanizmlari hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri hali to'liq tizimlashtirilmagan. Aynan, mustaqil ta'limni rejalashtirish, monitoring qilish va baholash jarayonlarida empirik tahlillar hamda kollokvium metodlaridan kompleks foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Asosiy qism. Kredit-modul tizimi oliy ta'limni tashkil etishning zamonaviy modeli bo'lib, unda ta'lim jarayoni talabaning mustaqil o'quv faoliyatiga yo'naltiriladi. Mazkur tizimning asosiy maqsadi talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Shuning uchun ham kredit-modul tizimida auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limning mazmuni, shakllari va metodlarini ilmiy asosda tashkil etish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.


Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, talabaning mustaqil faoliyati uning o'quv jarayonidagi passiv ishtirokchidan faol bilim yaratuvchiga aylanishini ta'minlaydi. B.J.Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan self-regulated learning nazariyasida talaba mustaqil ta'lim jarayonining markaziy subyekti sifatida qaraladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, talaba o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi, o'quv faoliyatini rejalashtiradi, o'zlashtirish jarayonini nazorat qiladi hamda erishilgan natijalarni baholaydi. Kredit-modul tizimi aynan shu tamoyillarni amalga oshirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Mustaqil faoliyatni tashkil etishning samaradorligi o'quv modullarining to'g'ri loyihalashtirilishiga bevosita bog'liq. Har bir modul aniq o'quv maqsadlari, kutilayotgan natijalar, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlarini o'z ichiga olishi lozim. Talaba modul doirasidagi nazariy materiallarni mustaqil o'zlashtiradi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, qo'shimcha ilmiy manbalarni o'rganadi va o'z bilimlarini turli nazorat shakllari orqali namoyon etadi. Bunday yondashuv mustaqil ta'limning tizimliliigi va uzluksizligini ta'minlaydi.

D.A.Kolbning tajribaviy ta'lim nazariyasiga ko'ra, bilim faqat tayyor axborotni o'zlashtirish orqali emas, balki amaliy tajriba asosida shakllanadi. Shu sababli kredit-modul tizimida loyiha ishlari, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya topshiriqlari, keystadilar va ishlab chiqarish bilan bog'liq vazifalar mustaqil ta'limning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning

kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlarning ahamiyati katta.

Masalan, "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanida talabalar yangi kiyim modelini loyihalash, material tanlash, texnologik jarayonni ishlab chiqish, mehnat sarfini hisoblash va tayyor mahsulot sifatini baholash kabi topshiriqlarni mustaqil bajarishlari mumkin. Ushbu faoliyat nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash, ijodiy fikrlash va kasbiy muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning konseptual modeli

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Elektron ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, videodarslar, onlayn testlar va masofaviy ta'lim vositalari talabalarga o'quv materiallarini qulay va mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Raqamli ta'lim muhiti talabaning o'z vaqtini samarali rejalashtirishi, o'zlashtirish darajasini muntazam nazorat qilishi hamda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishiga yordam beradi.

J.Biggs va C.Tang tomonidan ilgari surilgan konstruktiv moslik konsepsiyasiga ko'ra, o'quv maqsadlari, ta'lim metodlari va baholash mezonlari o'zaro uyg'un holda ishlab chiqilishi zarur. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim topshiriqlarining fan dasturidagi kompetensiyalar bilan bog'liqligi, baholash mezonlarining shaffofligi va natijaga yo'naltirilganligi talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi [7].

1-jadval

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish bosqichlari

Bosqich	Amalga oshiriladigan faoliyat	Kutilayotgan natija
---------	-------------------------------	---------------------

Rejalashtirish	Fan dasturi asosida mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish, o'quv maqsadlarini belgilash	Talabanning mustaqil faoliyati tizimli tashkil etiladi
Tashkil etish	Mustaqil topshiriqlar, loyiha ishlari, amaliy mashg'ulotlar va elektron resurslardan foydalanishni yo'lga qo'yish	Mustaqil o'qish muhiti shakllanadi
Bajarish	Talabanning mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishi, ilmiy manbalarni tahlil qilishi va amaliy vazifalarni hal etishi	Mustaqil ta'lim ko'nikmalari rivojlanadi
Monitoring	O'qituvchi tomonidan pedagogik kuzatish, maslahat va oraliq nazoratni amalga oshirish	Mustaqil faoliyat samaradorligi nazorat qilinadi
Baholash	Kollokvium, test, loyiha himoyasi va portfoliolar asosida baholash	Talabanning bilim, ko'nikma va kompetensiyalari aniqlanadi
Refleksiya	Talabanning o'z faoliyatini tahlil qilishi va takomillashtirish rejasini ishlab chiqishi	O'z-o'zini boshqarish va uzluksiz rivojlanish kompetensiyasi shakllanadi

Mustaqil ta'lim samaradorligini ta'minlashda refleksiya ham muhim pedagogik vosita hisoblanadi. D.A.Schön refleksiv ta'lim nazariyasida mutaxassisning kasbiy rivojlanishi o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Kredit-modul tizimida refleksiya kundaliklari, elektron portfoliolar, o'z-o'zini baholash varaqalari va muhokama mashg'ulotlari talabalarning mustaqil fikrlashini hamda o'z bilimlarini tanqidiy baholashini rivojlantiradi.

Mustaqil faoliyatni monitoring qilish va baholashda empirik tahlil metodlaridan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Empirik tahlillar orqali talabalarning mustaqil ishlash faolligi, topshiriqlarni bajarish sifati, motivatsiyasi va o'zlashtirish darajasi kuzatish, anketa, suhbat, test, pedagogik tajriba hamda statistik tahlil metodlari yordamida aniqlanadi. Olingan natijalar ta'lim jarayonini takomillashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimida kollokvium mustaqil ta'lim natijalarini baholashning samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Kollokvium davomida talabalar o'rganilgan mavzular yuzasidan ilmiy munozaralarda ishtirok etadi, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga tatbiq etadi, o'z fikrini asoslab beradi va muammoli savollarga javob izlaydi. Mazkur metod talabalarning mantiqiy fikrlashini, kommunikativ kompetensiyalarini va ilmiy nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Empirik tahlillar va kollokviumni o'zaro uyg'unlashtirish kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Empirik kuzatuvlar natijasida aniqlangan muammolar kollokvium jarayonida

muhokama qilinish, talabalarning o'zaro fikr almashishi, xatolarni tahlil qilishi va takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqarishiga imkon yaratadi. Bu esa ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlab, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini yanada rivojlantiradi.

2-jadval

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil faoliyatini baholash mezonlari

Baholash mezonlari	Ko'rsatkich	Baholash usuli
Mustaqillik darajasi	Topshiriqlarni mustaqil bajarishi	Kuzatish, portfolio
O'quv motivatsiyasi	Mashg'ulotlarda faol ishtiroki, topshiriqlarni o'z vaqtida topshirishi	Anketa, suhbat
Axborot bilan ishlash ko'nikmasi	Ilmiy adabiyotlardan foydalanish va tahlil qilish	Mustaqil ish, referat
Tanqidiy fikrlash	Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish	Kollokvium, keys-stadi
Amaliy kompetensiya	Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashi	Loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar
O'z-o'zini baholash	Refleksiya va portfolioni yuritish	Refleksiya varaqalari, elektron portfolio

Shunday qilib, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil faoliyatini samarali tashkil etish modul asosida o'qitish, tajribaviy ta'lim, refleksiv yondashuv, raqamli ta'lim texnologiyalari, konstruktiv moslik, empirik tahlil va kollokvium kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlarning kompleks qo'llanilishiga asoslanadi. Mazkur metodlar talabalarda mustaqil bilim olish, ilmiy izlanish olib borish, kasbiy muammolarni hal etish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, talaba markazlashgan ta'lim konsepsiyasi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar tashkil etdi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, anketa so'rovi, suhbat, pedagogik tajriba-sinov va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalarni o'rganish orqali kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari umumlashtirildi. Pedagogik kuzatish yordamida talabalarning mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faolligi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari va ta'lim natijalari tahlil qilindi.

Empirik tadqiqotlarda anketa va suhbat metodlari orqali talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan munosabati, motivatsiyasi hamda mavjud muammolari aniqlandi. Olingan natijalar pedagogik tajriba-sinov ishlari bilan solishtirilib, statistik tahlil asosida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida

olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi hamda nazorat va tajriba guruhlarini ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Xususan, modul asosida tashkil etilgan topshiriqlar, loyiha ishlari, kollokviumlar hamda raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish talabalarning mustaqil ishlash faolligini kuchaytirishi aniqlandi.

Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, muntazam kollokviumlar o'tkazilgan guruhlarda talabalar dars mashg'ulotlariga puxta tayyorgarlik ko'rgan, o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirgan va ilmiy adabiyotlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirgan. Kollokvium jarayonidagi ilmiy munozaralar talabalar o'rtasida fikr almashish, tanqidiy tahlil qilish hamda muammolarni birgalikda hal etish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qildi.

Empirik tahlillar natijasida mustaqil topshiriqlarni bajarishda muntazam monitoring olib borilgan talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lganligi kuzatildi. Ayniqsa, elektron ta'lim platformalari orqali berilgan topshiriqlar talabalarning mustaqil ishlash vaqtini samarali rejalashtirish, axborotlarni tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Olingan natijalar B.J.Zimmermannning o'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim nazariyasi bilan hamohang bo'lib, talabalarning mustaqil faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish ularning akademik muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. D.A.Kolbning tajribaviy ta'lim nazariyasida ilgari surilgan amaliy faoliyat orqali bilimlarni mustahkamlash tamoyillari loyiha ishlari va amaliy mashg'ulotlarda o'z tasdig'ini topdi. J.Biggs va C.Tang tomonidan taklif etilgan konstruktiv moslik konsepsiyasi asosida tashkil etilgan topshiriqlar esa baholash mezonlarining shaffofligini ta'minlab, talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirdi.

Texnika oliy ta'lim muassasalari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanida mustaqil loyihalar, texnologik hisob-kitoblar, konstruktorlik ishlari va kollokviumlarni uyg'unlashtirish talabalar kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- ✓ kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim oliy ta'limning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, talabaning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi;
- ✓ mustaqil faoliyatni modul asosida rejalashtirish ta'lim jarayonining izchilligini va natijadorligini ta'minlaydi;

- ✓ raqamli ta'lim texnologiyalari, loyiha ishlari va interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning o'quv motivatsiyasini hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- ✓ empirik tahlillar talabalarning mustaqil faoliyatini monitoring qilish va baholashning samarali vositasi hisoblanadi;
- ✓ kollokviumlar talabalarda ilmiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va o'z bilimni asoslab bera olish kompetensiyalarini shakllantiradi;
- ✓ empirik tahlillar va kollokviumni integratsiyalash kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Shu asosda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishda empirik tahlillar, muntazam kollokviumlar, loyiha asosidagi topshiriqlar hamda raqamli ta'lim platformalaridan kompleks foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida.
3. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 120 b.
4. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi OTMlarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 152 b.
5. European Commission. ECTS Users' Guide. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2020. – 106 p.
6. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 186 p.
7. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 5th ed. – London: Open University Press, 2022. – 416 p.
8. Mirzayeva F.O., Ubaydullayeva D. Conditions and Methods of Organizing Independent Education of Students in the Credit Module System // Telematique. – 2023. – Vol. 22. – P. 457–466.
9. Turaev Sh. Organization of Independent Education in the Credit-Module System of Teaching // Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2022. – Vol. 9. – P. 33–37.

10. Boltaeva B.X. A Model for the Development of Student Self-Learning Competencies in a Credit-Module System // *Pedagogy and Psychology in the Modern World*. – 2024. – №4. – B. 330–336.
11. Kurbanov Sh.Z. Methods of Organizing Education in the Credit Module System and Implementing Independent Study // *European International Journal of Pedagogics*. – 2024. – Vol. 4. – №6. – P. 13–17.
12. Mirzayeva Z. Students' Independent Work in Credit Module System // *Proceedings of International Conference on Education*. – 2023. – P. 75–81.
13. Hakimova Z. The Credit-Module System in Uzbekistan Universities: Introduction, Challenges and Measures // *International Scientific Conference Proceedings*. – 2025. – P. 154–161.
14. Rashidov N., Rafikova D.Q. The Credit-Module System for Students // *Fergana Methodical School*. – 2025. – №1. – B. 80–87.
15. Khaknazarova L. Achievements of the Credit-Module System in Higher Education Institutions of Uzbekistan // *International Journal of Academic Pedagogical Research*. – 2025. – Vol. 9. – №6. – P. 200–204.
16. Esemuratov B. The Practical State of Organising Individual Study Work for Students in Higher Education // *O‘zbekiston Milliy universiteti xabarлари*. – 2025. – №3. – B. 145–151.
17. Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetentligini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari // *Guliston davlat universiteti axborotnomasi*. – 2024. – №2. – B. 94–101.
18. Mamatova S. Sh. Organization of Independent Activity of Students through Empirical Analysis and Colloquium on the Example of the Subject "Sewing Technology" // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. – 2026. – Vol. 14, No. 1. – P. 27–32. – **6 p.**